O‘ZBEKISTONDA TASHQI SAVDO FAOLLIGI VA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li
Tayanch doktorant, NamDTU
ismoilovabdulxoliq0305@gmail.com, tel: +998993590305
ORCID: 0009-0006-6436-7604

Annotatsiya. O‘zbekistonda tashqi savdo faolligi va hududlar iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda zamonaviy tashqi savdo tendensiyalarining mintaqalar rivojlanishiga ta’sirini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik va qiyosiy tahlil, dinamik qatorlarni baholash, tarkibiy tahlil hamda hududlararo taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmi, eksportning tovar hamda geografik tarkibi, hududlarning tashqi savdodagi ishtiroki va eksport faolligi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar mamlakat tashqi savdo hajmining o‘sishi bilan birga hududlarning ushbu jarayondagi ishtiroki sezilarli darajada farqlanishini, eksport faoliyati sanoat va ishlab chiqarish salohiyati yuqori hududlarda nisbatan faol ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, ayrim mintaqalarda mavjud iqtisodiy va demografik salohiyatga nisbatan eksport imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotgani aniqlandi. Olingan natijalar hududlarning raqobat ustunliklariga mos differensial eksport siyosatini shakllantirish, eksport tarkibi va geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda mintaqaviy tashqi savdo faolligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo faolligi, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, eksport salohiyati, tashqi savdo aylanmasi, eksport diversifikatsiyasi, savdo ochiqligi, hududiy eksport faolligi, eksport geografiyasi, hududlararo iqtisodiy tafovutlar, tashqi savdo tarkibi.

Аннотация: В статье исследуется взаимосвязь между внешнеторговой активностью и региональным экономическим развитием в Узбекистане, а также оценивается влияние современных тенденций внешней торговли на развитие регионов. Методология исследования основана на применении статистического и сравнительного анализа, анализа динамических рядов, структурного анализа и межрегионального сопоставления. Проанализированы внешнеторговый оборот Узбекистана, объёмы экспорта и импорта, товарная и географическая структура экспорта, участие регионов во внешней торговле и показатели экспортной активности. Результаты исследования показывают, что наряду с ростом внешнеторгового оборота страны сохраняются существенные различия в уровне участия регионов во внешней торговле, при этом более

высокая экспортная активность характерна для территорий с развитым промышленным и производственным потенциалом. Установлено также, что в отдельных регионах имеющийся экономический и демографический потенциал используется для развития экспорта недостаточно полно. Полученные результаты имеют научно-практическое значение для формирования дифференцированной региональной экспортной политики, диверсификации товарной и географической структуры экспорта, а также разработки управленческих решений, направленных на повышение внешнеторговой активности регионов.

Ключевые слова: внешнеторговая активность, региональное экономическое развитие, экспортный потенциал, внешнеторговый оборот, диверсификация экспорта, открытость торговли, региональная экспортная активность, география экспорта, межрегиональные экономические различия, структура внешней торговли.

Abstract: This article examines the relationship between foreign trade activity and regional economic development in Uzbekistan and assesses the impact of contemporary foreign trade trends on regional development. The research methodology is based on statistical and comparative analysis, time-series analysis, structural analysis, and interregional comparisons. The study analyzes Uzbekistan’s foreign trade turnover, export and import volumes, the commodity and geographical structure of exports, regional participation in foreign trade, and indicators of export activity. The results demonstrate that, despite the overall growth of the country’s foreign trade turnover, significant disparities persist in the level of regional participation in foreign trade, with higher export activity observed in regions possessing stronger industrial and production capacities. The findings also reveal that some regions do not fully utilize their existing economic and demographic potential for export development. The results have scientific and practical significance for formulating differentiated regional export policies, diversifying the commodity and geographical structure of exports, and developing policy measures aimed at strengthening regional foreign trade activity.

Keywords: foreign trade activity, regional economic development, export potential, foreign trade turnover, export diversification, trade openness, regional export activity, export geography, interregional economic disparities, foreign trade structure.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro ishlab chiqarish zanjirlarining kengayishi va tashqi bozorlardagi raqobatning kuchayishi sharoitida tashqi savdo mamlakatlar va ularning hududlari iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Tashqi savdo faolligining ortishi ishlab chiqaruvchilarga ichki bozor chegaralaridan tashqariga chiqish, ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va xalqaro raqobat ta’sirida mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tashqi savdoning iqtisodiy samarasi mamlakat hududlari bo‘yicha bir xil taqsimlanmaydi. Hududlarning sanoat salohiyati, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, transport-logistika infratuzilmasi, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari va eksportchi korxonalar sonidagi farqlar ularning xalqaro savdodagi ishtirok darajasini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, tashqi savdo faolligini faqat mamlakat miqyosidagi eksport va import ko‘rsatkichlari orqali emas, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashuv, eksport tartib-taomillarini soddalashtirish va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan islohotlar natijasida mamlakatning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi faollashdi. Biroq tashqi savdo hajmining umumiy o‘sishi barcha hududlarning mazkur jarayondan teng darajada foydalanayotganligini anglatmaydi. Hududlarning eksport faolligidagi tafovutlarni aniqlash, ularni yuzaga keltiruvchi iqtisodiy omillarni baholash va mavjud eksport salohiyatidan foydalanish darajasini o‘rganish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ruzibaeva va Shakarboev tomonidan O‘zbekiston tashqi savdosining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, mamlakat eksportining an’anaviy tovarlarga qaram modeldan nisbatan diversifikatsiyalashgan tarkib tomon o‘zgarayotgani, shuningdek, iqtisodiy islohotlar va global bozorga integratsiyalashuv tashqi savdo tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etilgan [1]. Mazkur holat tashqi savdodagi tarkibiy o‘zgarishlarning hududlar iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini alohida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston tashqi savdosining zamonaviy rivojlanish bosqichida eksportning nafaqat miqdoriy o‘sishi, balki uning tovar va geografik tarkibini diversifikatsiya qilish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Eksport tarkibining cheklangan tovar guruhlari yoki ayrim tashqi bozorlarga yuqori darajada bog‘lanib qolishi hududiy iqtisodiyotlarning tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan zaifligini oshirishi mumkin. Aksincha, qayta ishlangan va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportining kengayishi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, korxonalarning texnologik salohiyatini oshirish va hududiy daromad bazasini mustahkamlash imkonini beradi. O‘zbekistonda eksport tarkibida sanoat mahsulotlari, to‘qimachilik, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xizmatlar hamda boshqa yo‘nalishlarning rivojlanishi hududlarning xalqaro savdoga integratsiyalashuvi uchun yangi imkoniyatlar

yaratmoqda. Biroq mintaqalarning resurs bazasi, ishlab chiqarish tarkibi va raqobat ustunliklari turlicha bo‘lganligi sababli tashqi savdo faolligining hududiy natijalari ham sezilarli darajada farqlanadi. Ayrim hududlarda eksport ishlab chiqarishning muhim drayveriga aylangan bo‘lsa, boshqa hududlarda mavjud demografik, tabiiy va ishlab chiqarish salohiyatiga nisbatan eksport ko‘rsatkichlari pastligicha qolmoqda. Shu sababli hududlarning tashqi savdodagi ishtirokini eksport hajmi bilangina emas, balki uning tarkibi, geografiyasi va diversifikatsiya darajasi bilan birgalikda baholash talab etiladi. Sultanova O‘zbekiston eksportining 2010–2023-yillardagi rivojlanishini o‘rganib, eksportning tovar va geografik diversifikatsiyasini jadallashtirish, eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda hududiy eksport faoliyatini faollashtirish zarurligini asoslagan [2]. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston hududlarining tashqi savdo faolligini qiyosiy baholash, eksport salohiyati va iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tashqi savdo faolligi va hududiy iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etishda transport-logistika imkoniyatlari ham alohida e’tiborni talab qiladi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakatda hududlarning eksport raqobatbardoshligi ishlab chiqarish tannarxi bilangina emas, balki mahsulotni tashqi bozorga yetkazib berish xarajatlari, transport koridorlariga ulanish, bojxona jarayonlari, ombor va logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi. Hududiy ishlab chiqaruvchi korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqishida transport xarajatlarining yuqoriligi eksport mahsulotlarining yakuniy narxiga ta’sir ko‘rsatib, ularning xorijiy bozorlardagi raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli tashqi savdo hajmining o‘sishi hududiy iqtisodiy rivojlanishga avtomatik ravishda bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi; mazkur ta’sir hududning sanoat bazasi, infratuzilmasi, eksport ixtisoslashuvi va tashqi bozorlar bilan bog‘lanish darajasiga qarab differensial shakllanadi. Simpson O‘zbekistonning makrologistik bog‘liqligini tadqiq etib, mamlakatning Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo, MDH hamda Yevropa bozorlarini bog‘lovchi mintaqaviy markazga aylanish salohiyatini qayd etadi va eksportni yengillashtirish, sanoat zonalarini rivojlantirish hamda transport infratuzilmasini takomillashtirish iqtisodiy liberallashuvning muhim yo‘nalishlari ekanligini asoslaydi [3]. Shu jihatdan O‘zbekistonda tashqi savdo faolligi bilan hududlarning iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, tashqi savdodagi hududlararo tafovutlarni baholash va eksport faolligini cheklayotgan omillarni tizimlashtirish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston tashqi savdosining

zamonaviy tendensiyalari, eksport-import tarkibi, savdo geografiyasi va hududlarning tashqi savdodagi ishtirokini qiyosiy tahlil qilish orqali tashqi savdo faolligi hamda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi mavjud bog‘liqliklarni aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Tashqi savdo faolligi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilayotgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, mazkur munosabatning xususiyati mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy tuzilishi, ishlab chiqarish salohiyati hamda xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv darajasiga qarab farqlanishi ta’kidlanadi. Oloyede, Osabuohien va Ejemeyovwi Afrika mintaqaviy iqtisodiy hamjamiyatlari – ECOWAS va SADC misolida savdo ochiqligi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni panel ma’lumotlari asosida o‘rgangan. Mualliflar Pooled OLS, Fixed Effects va Random Effects ekonometrik usullaridan foydalanib, savdo ochiqligi bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasida ijobiy, biroq statistik jihatdan har doim ham ahamiyatli bo‘lmagan bog‘liqlik mavjudligini aniqlaganlar [4]. Ushbu natija tashqi savdo hajmining o‘sishi iqtisodiy rivojlanishga avtomatik tarzda yuqori samara keltirmasligini ko‘rsatadi. Ya’ni tashqi savdo imkoniyatlarini real iqtisodiy o‘sishga aylantirish uchun ishlab chiqarish salohiyati, investitsiya muhiti, infratuzilma va institutsional mexanizmlar ham rivojlangan bo‘lishi lozim. Tadqiqotning mazkur xulosasi mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega, chunki bir mamlakat doirasidagi hududlarning ham tashqi savdo imkoniyatlari va ulardan foydalanish darajasi bir xil emas. Sanoatlashgan, transport-logistika infratuzilmasi rivojlangan va eksportga yo‘naltirilgan korxonalar ko‘p joylashgan hududlar xalqaro savdo kengayishidan ko‘proq iqtisodiy samara olishi mumkin. Aksincha, ishlab chiqarish bazasi nisbatan zaif yoki tashqi bozorlarga chiqish xarajatlari yuqori bo‘lgan hududlarda savdo ochiqligining iqtisodiy ta’siri cheklanishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun tashqi savdo va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi munosabatni milliy ko‘rsatkichlar bilangina izohlash yetarli emas. Uni hududlar kesimida tashqi savdo faolligi, eksport salohiyati va iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarining o‘zaro nisbatlarini hisobga olgan holda tahlil qilish zarur. Bunday yondashuv O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi tashqi savdo faolligi tafovutlarini aniqlash va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini baholash uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

Tashqi savdo va hududiy iqtisodiy rivojlanish munosabatlarini tadqiq etishda savdo ochiqligining hududlar bo‘yicha differensial ta’sirini hisobga olish zamonaviy ilmiy adabiyotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Xitoy iqtisodiyoti misolida olib borilgan empirik tadqiqotlarda savdo ochiqligi bilan iqtisodiy o‘sish sifati o‘rtasida uzoq muddatli barqaror bog‘liqlik mavjudligi va mazkur ta’sir hududlar bo‘yicha bir

xil shakllanmasligi aniqlangan [5]. Ushbu tadqiqotda ARDL modeli orqali savdo ochiqligi iqtisodiy o‘sish sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, biroq natijalar hududiy heterogenlikka ega ekanligi ko‘rsatilgan. Bu xulosa mintaqaviy iqtisodiyot uchun muhim nazariy va amaliy mazmunga ega. Chunki xalqaro savdoga integratsiyalashuv darajasining ortishi bir tomondan korxonalarning yangi bozorlarga kirishini, ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishini va texnologik yangilanishini rag‘batlantirsa, ikkinchi tomondan hududning mavjud sanoat tarkibi, transport xarajatlari va ishlab chiqarish omillari bilan ta’minlanganligiga qarab turlicha natija beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda transport xarajatlari ham ushbu bog‘liqlikning muhim vositachi omili sifatida ko‘rilmoqda. Xususan, Xitoy shaharlari bo‘yicha olib borilgan yangi empirik tadqiqot savdo ochiqligining hududiy iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’siri yuqori ichki transport xarajatlari sharoitida pasayishini ko‘rsatadi [6]. Mualliflar mazkur munosabatni ishlab chiqarish miqyosi samarasi va tarmoqlararo aloqalar orqali izohlaydi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston uchun ham muhim, chunki mamlakatning dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati mavjud emas va hududlarning asosiy xalqaro transport yo‘laklariga ulanish darajasi turlicha. Natijada bir xil eksport salohiyatiga ega ikki hududning tashqi savdo faolligi logistika sharoitlari sababli sezilarli farq qilishi mumkin. Demak, tashqi savdo faolligi va hududiy iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashda eksport-import hajmlari bilan bir qatorda hududning ishlab chiqarish bazasi, transport-logistika imkoniyatlari va bozorga kirish sharoitlarini ham hisobga olish zarur.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda eksport hajmini oshirish bilan bir qatorda uning tovar va geografik diversifikatsiyasi iqtisodiy barqarorlikning muhim sharti sifatida baholanmoqda. Eksport tarkibining cheklangan miqdordagi mahsulot yoki bozorlarda konsentratsiyalashuvi tashqi talab o‘zgarishlari, narx tebranishlari va geosiyosiy xatarlarga nisbatan iqtisodiyotning sezgirligini oshiradi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda eksport diversifikatsiyasini ta’minlovchi texnologik va institutsional omillarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sultanova va Naser rivojlanayotgan mamlakatlar misolida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eksport diversifikatsiyasiga ta’sirini empirik jihatdan o‘rganganlar [7]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar va AKT infratuzilmasining rivojlanishi korxonalarning axborot olish xarajatlarini kamaytirish, yangi xorijiy bozorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga kirishni kengaytirish va xalqaro savdo operatsiyalarini samaraliroq tashkil etish orqali eksport tarkibining diversifikatsiyalanishiga ko‘maklashishi mumkin. Mazkur yondashuv hududiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan ham muhimdir. Chunki zamonaviy sharoitda mintaqaning eksport salohiyati faqat tabiiy resurslar yoki mavjud sanoat quvvatlari bilan belgilanmaydi; raqamli

infratuzilma, elektron tijorat imkoniyatlari, eksportchi korxonalarning xalqaro bozorlar haqidagi axborotga kirishi va zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish qobiliyati ham muhim raqobat omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari ulushi yuqori hududlarda raqamlashtirish an’anaviy eksport kanallariga kirish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishi va yangi bozorlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, hududlarning tashqi savdo faolligini baholashda eksport hajmining mutlaq qiymatlari bilangina cheklanmasdan, uning tovar tarkibi, geografik yo‘nalishlari va yangi eksport segmentlarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv tashqi savdoning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini yanada to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning so‘nggi tadqiqotlarida mamlakat eksportining tarkibiy o‘zgarishi va diversifikatsiyasi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, G. Sultanova O‘zbekistonning 2010–2023-yillardagi tovar va xizmatlar eksporti dinamikasini tahlil qilib, eksportning tovar tarkibi va geografik yo‘nalishlari diversifikatsiyasini eksport mahsulotlari konsentratsiyasi hamda diversifikatsiya indekslari asosida baholagan. Tadqiqot natijalarida O‘zbekiston eksportini yanada diversifikatsiya qilish, tayyor va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda hududiy eksport faolligini kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan. Ushbu xulosalar mazkur maqola mavzusi bilan bevosita bog‘liq, chunki mamlakat eksport ko‘rsatkichlarining umumiy yaxshilanishi hududlar kesimida bir xil natijalarni anglatmaydi. O‘zbekiston hududlari ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, tabiiy va mehnat resurslari, sanoatlashuv darajasi, eksportchi korxonalar soni hamda transport-logistika imkoniyatlari bo‘yicha sezilarli farqlanadi. Shunga muvofiq, ayrim hududlar mamlakat tashqi savdosida yuqori ulushga ega bo‘lsa, boshqalarining tashqi savdodagi ishtiroki mavjud iqtisodiy va demografik salohiyatiga nisbatan past bo‘lishi mumkin. Sultanovaning tadqiqoti eksport diversifikatsiyasining milliy miqyosdagi holatini batafsil yoritishi bilan ahamiyatli bo‘lsa-da, hududlar kesimidagi tashqi savdo faolligi va iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘rtasidagi tafovutlarni alohida empirik muammo sifatida chuqur tadqiq etmaydi. Aynan shu jihat mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan qo‘shimcha ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Mamlakat tashqi savdo siyosatining hududiy samaradorligini oshirish uchun har bir mintaqaning eksport salohiyati, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va mavjud tashqi savdo faolligini qiyosiy baholash zarur. Bunday tahlil hududlarga bir xil eksport siyosatini qo‘llashdan ko‘ra, ularning o‘ziga xos raqobat ustunliklariga asoslangan differensial yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston eksportini diversifikatsiya qilishga bag‘ishlangan mahalliy tadqiqotlarning keyingi yo‘nalishi eksport tarkibidagi o‘zgarishlarning iqtisodiy, texnologik va ekologik natijalarini ekonometrik baholash bilan bog‘liq. Sultanova, Djuraeva, Ahmedov va Turaeva O‘zbekiston misolida eksport diversifikatsiyasi va ekologik iz o‘rtasidagi munosabatni ARDL yondashuvi yordamida empirik tahlil qilganlar [8]. Tadqiqot 1996–2020-yillar ma’lumotlariga asoslanib, eksport diversifikatsiyasining ta’sirini uzoq va qisqa muddatli munosabatlar doirasida baholashga qaratilgan. Mazkur ishning maqola mavzusi uchun muhim tomoni shundaki, u eksport tarkibidagi o‘zgarishlarni oddiy savdo ko‘rsatkichi sifatida emas, balki kengroq iqtisodiy tizimga ta’sir ko‘rsatuvchi tarkibiy omil sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuv mintaqaviy iqtisodiyot tadqiqotlari uchun ham metodologik jihatdan muhimdir. Hududning eksport tarkibi uning sanoat ixtisoslashuvi, qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyati, bandlik va investitsiya talabi bilan chambarchas bog‘liq. Xomashyo yoki past qayta ishlangan mahsulotlar eksportiga tayangan hudud bilan tayyor sanoat mahsulotlari va xizmatlar eksporti rivojlangan hududning bir xil eksport hajmidan oladigan iqtisodiy samarasi farq qilishi tabiiy. Shuningdek, eksportning tovar va geografik diversifikatsiyasi hududning tashqi bozor shoklariga nisbatan barqarorligini oshirishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston hududlarining tashqi savdo faolligini tadqiq etishda eksport va importning mutlaq hajmlari bilan bir qatorda ularning hudud iqtisodiyotidagi o‘rni, eksport tarkibi va iqtisodiy salohiyat bilan mutanosibligi ham hisobga olinishi lozim. Mahalliy adabiyotlarda eksport diversifikatsiyasining milliy iqtisodiyotga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar kengayib borayotgan bo‘lsa-da, aynan hududlarning tashqi savdo faolligi va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish darajasini o‘zaro qiyoslashga qaratilgan tadqiqotlar nisbatan cheklanganligicha qolmoqda.

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi O‘zbekistonda tashqi savdo faolligi va hududlar iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashga qaratilgan statistik, dinamik, tarkibiy va qiyosiy tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, hududiy statistika boshqarmalari hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma’lumotlari tashkil etdi. Dinamik tahlil orqali tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlarining o‘zgarish tendensiyalari, tarkibiy tahlil asosida eksportning tovar va geografik tuzilishi baholandi. Hududlararo qiyosiy tahlil yordamida mintaqalarning tashqi savdodagi ishtiroki va eksport faolligidagi tafovutlar aniqlandi. Olingan natijalarni tizimli umumlashtirish asosida hududlarning iqtisodiy salohiyati va tashqi savdo faolligi o‘rtasidagi mavjud bog‘liqliklar baholanib, mintaqaviy eksport faoliyatini rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda tashqi savdo faolligining so‘nggi yillardagi o‘zgarishini baholash mamlakat iqtisodiyotining xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv darajasi bilan bir qatorda, ushbu jarayonning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda dastlab tashqi savdoning dinamik ko‘rsatkichlari, keyingi bosqichda uning tovar va geografik tarkibi, so‘ngra hududlarning tashqi savdo jarayonidagi ishtiroki qiyosiy tahlil qilindi. Bunday ketma-ketlik tashqi savdo hajmining miqdoriy o‘sishini uning tarkibiy sifati va hududlar bo‘yicha taqsimlanishi bilan o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Statistik ma’lumotlar O‘zbekistonda 2020-yildagi qisqarishdan keyin tashqi savdo faolligi tiklanib, 2021–2025-yillarda barqaror o‘sish trayektoriyasiga o‘tganini ko‘rsatmoqda.

1-jadval.

O‘zbekiston tashqi savdosining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2019–2024-yillar

Ko‘rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2019–2024 o‘zgarishi
Tashqi savdo aylanmasi, mlrd. AQSH dollari	37,2	30,8	42,2	50,5	62,6	65,93	+77,2%
Eksport, mlrd. AQSH dollari	15,1	13,3	16,7	19,7	24,4	26,94	+78,4%
Import, mlrd. AQSH dollari	22,1	17,5	25,5	30,8	38,1	38,98	+76,4%
Savdo balansi, mlrd. AQSH dollari	–7,0	–4,2	–8,8	–11,1	–13,78	–12,03	–
Eksportning o‘sish sur’ati, %	–	–11,9	+25,6	+18,0	+23,9	+8,4	–
Hamkor mamlakatlar soni	180+	185+	188+	190+	200+	210+	kengaygan

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma’lumotlari 2019–2024-yillarda O‘zbekiston tashqi savdosida umumiy o‘sish tendensiyasi shakllanganini, biroq ushbu jarayonning chiziqli kechmaganini ko‘rsatadi. 2020-yilda tashqi savdo aylanmasi 30,8 mlrd. dollargacha qisqargan bo‘lsa, 2021-yildan boshlab tiklanish bosqichi boshlanib, 2024-yilda 65,93 mlrd. dollarga yetgan. Natijada olti yillik davrda tashqi savdo aylanmasining nominal hajmi 77,2 foizga oshgan. Eksportning 15,1 mlrd. dollardan 26,94 mlrd. dollarga, importning esa 22,1 mlrd. dollardan 38,98 mlrd. dollarga ko‘tarilishi iqtisodiyotning xalqaro tovar almashinuvidagi faolligi sezilarli ravishda

kengayganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2021–2023-yillarda eksportning yuqori o‘sish sur’atlari pandemiyadan keyingi davrda tashqi talab va eksport operatsiyalarining tiklanishi bilan tavsiflanadi.

Biroq tashqi savdo hajmining o‘sishi bilan bir vaqtda importning eksportdan yuqoriligi saqlanib qolgan. Savdo balansi 2019-yilda –7,0 mlrd. dollar bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda manfiy saldo –13,78 mlrd. dollargacha kengaygan. 2024-yilda esa eksport 8,4 foizga o‘sgan sharoitda importning o‘sishi sezilarli sekinlashishi natijasida manfiy saldo –12,03 mlrd. dollargacha qisqargan. Bu holat tashqi savdo faolligining o‘sishini faqat aylanma hajmi bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Eksportning importni moliyalashtirish imkoniyati, uning tovar tarkibi va mamlakat ichida yaratiladigan qo‘shilgan qiymat miqdori ham iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi mezonlar sifatida qaralishi lozim.

Tashqi savdo faolligining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini chuqurroq baholash uchun eksportning qanday mahsulotlar hisobiga shakllanayotganini aniqlash muhim. 2024-yilda O‘zbekiston eksportida qimmatbaho metallar, sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat va to‘qimachilik mahsulotlari muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, oltinning eksportdagi yuqori ulushi bir tomondan mamlakatning valyuta tushumlarini ta’minlasa, ikkinchi tomondan eksport natijalarining ayrim xomashyo va resurs guruhlariga sezgirligini oshiradi. Shu sababli eksport hajmining o‘sishini uning tarkibiy sifati bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

2-jadval.

O‘zbekiston eksportining ayrim asosiy tovar guruhlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari, 2024-yil

Tovar guruhi	Eksport hajmi, mlrd. AQSH dollari	Jami eksportdagi holati / o‘zgarishi
Qimmatbaho metallar, asosan oltin	7,48	≈27,8%
Sanoat mahsulotlari	4,20	+3,7%
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	2,17	+22,4%
To‘qimachilik va gazlama	1,99	–3,7%
Sabzavot va mevalar	1,58	+32,5%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval natijalari O‘zbekiston eksportida turli tarmoqlarning rivojlanish sur’atlari bir-biridan sezilarli farq qilganini ko‘rsatadi. Qimmatbaho metallar eksportining 7,48 mlrd. dollarni yoki jami eksportning qariyb 27,8 foizini tashkil qilishi eksport tushumlarining sezilarli qismi resurs omiliga bog‘liq ekanligini

bildiradi. Shu bilan birga, oziq-ovqat va tirik hayvonlar eksportining 22,4 foiz, sabzavot va mevalar eksportining esa 32,5 foiz o‘sishi agrar mahsulotlarning tashqi bozordagi imkoniyatlari kengayayotganini ko‘rsatadi. Ushbu tendensiya qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar uchun eksportni mintaqaviy iqtisodiy o‘sish manbaiga aylantirish imkoniyatini oshiradi.

Boshqa tomondan, to‘qimachilik va gazlama eksportining 2024-yilda 3,7 foiz kamayishi ushbu tarmoqdagi eksport faolligi doimo umumiy tashqi savdo o‘sishi bilan bir yo‘nalishda harakat qilmasligini ko‘rsatadi. Bu jihat mintaqaviy iqtisodiyot uchun ayniqsa ahamiyatli, chunki to‘qimachilik ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan hududlarning tashqi savdo natijalari mazkur tarmoqdagi xalqaro talab va raqobat sharoitlariga bevosita bog‘liq. Demak, hududiy eksport siyosatida faqat mavjud ixtisoslashuvni kengaytirish emas, balki qayta ishlash chuqurligini oshirish, tayyor mahsulotlar ulushini ko‘paytirish va eksport portfelini diversifikatsiya qilish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur. Mamlakatning xomashyo eksportidan yuqori qo‘shilgan qiymatli eksport modeliga o‘tish jarayoni davom etayotgani qayd etilgan.

Tashqi savdoning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini ochib berishda hududlar kesimidagi tafovutlar alohida ahamiyatga ega. Mamlakat miqyosida tashqi savdo o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, uning hududiy taqsimoti bir tekis emas. 2024-yil I chorak ma’lumotlarida Toshkent shahri, Toshkent va Andijon viloyatlarining tashqi savdo operatsiyalaridagi yuqori faolligini, ayrim boshqa hududlarda esa bu ko‘rsatkich sezilarli darajada past ekanligini ko‘rsatadi.

3-jadval

O‘zbekistonning ayrim hududlarida tashqi savdo faolligi, 2024-yil I chorak

Hudud	Tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSH dollari	Savdo faolligining tavsifi
Toshkent shahri	5 829,3	Juda yuqori
Toshkent viloyati	1 386,5	Yuqori
Andijon viloyati	1 226,4	Yuqori
Namangan viloyati	309,5	Nisbatan past
Surxondaryo viloyati	75,3	Past

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2024-yil I chorak bo‘yicha hududiy tashqi savdo ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval mamlakat tashqi savdo faolligining hududlar bo‘yicha sezilarli darajada differensiallashganini ko‘rsatadi. 2024-yil I choragida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi 5,8 mlrd. dollardan oshgan bo‘lsa, Namangan viloyatida bu ko‘rsatkich 309,5 mln. dollarni tashkil etgan. Toshkent viloyati va Andijonda ham tashqi savdo hajmi Namanganga nisbatan bir necha baravar yuqori bo‘lgan. Bunday

tafovutni faqat aholi soni bilan izohlash mumkin emas. Hududiy farqlarning shakllanishida sanoat korxonalarining konsentratsiyasi, transport-logistika imkoniyatlari, xizmatlar sektori, moliyaviy infratuzilma va xalqaro savdoga xizmat ko‘rsatuvchi institutsional tizimlarning hududiy joylashuvi muhim omillar sifatida qayd etilgan.

Aholi soniga nisbatan hisoblangan savdo intensivligi mazkur tafovutni yanada aniqroq namoyon etadi. 2024-yil I choragida Toshkent shahrida aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi qariyb 1 880 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatida ushbu ko‘rsatkich taxminan 100 dollarga teng bo‘lgan. Bu natija tashqi savdo faolligi hududning demografik salohiyati bilan avtomatik ravishda shakllanmasligini ko‘rsatadi. Aksincha, mavjud aholi va mehnat resurslarini eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishga jalb qilish, sanoat ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va eksport infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Namangan viloyatining 2024-yil yakunidagi tashqi savdo aylanmasi 1 341,6 mln. dollarni, eksporti qariyb 513,0 mln. dollarni va importi 828,6 mln. dollarni tashkil etgani ham hududda tashqi savdo faolligini oshirish uchun sezilarli foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman, o‘tkazilgan tahlil O‘zbekistonda tashqi savdo faolligi va hududiy iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi munosabatning bir xil emasligini ko‘rsatadi. Milliy darajada tashqi savdo aylanmasi 2019–2024-yillarda sezilarli kengaygan bo‘lsa-da, uning hududiy taqsimotida katta tafovutlar saqlanib qolmoqda. Sanoat va eksport infratuzilmasi rivojlangan hududlarda tashqi savdo faolligi yuqoriroq, ishlab chiqarish tarkibida kichik biznes va qishloq xo‘jaligining ulushi katta bo‘lgan ayrim hududlarda esa mavjud iqtisodiy va demografik salohiyat tashqi savdo ko‘rsatkichlarida to‘liq aks etmayapti. Shu bois mintaqaviy eksport siyosatini hududlarning ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, logistika imkoniyatlari va mavjud eksport salohiyatidan kelib chiqib differensial shakllantirish tashqi savdoning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekistonda 2019–2024-yillarda tashqi savdo faolligining sezilarli darajada kengayganini, biroq ushbu jarayon hududlar kesimida turlicha kechayotganini ko‘rsatdi. Tahlil davrida mamlakat tashqi savdo aylanmasi 37,2 mlrd. AQSH dollaridan 65,93 mlrd. dollarga, eksport hajmi esa 15,1 mlrd. dollardan 26,94 mlrd. dollarga yetgan. Shu bilan birga, hududlararo qiyosiy tahlil tashqi savdo faolligining Toshkent shahri, Toshkent va Andijon viloyatlarida yuqori darajada shakllanganini, Namangan viloyatida esa mavjud demografik va ishlab chiqarish salohiyatiga nisbatan tashqi savdo intensivligi pastroq ekanligini ko‘rsatdi. Eksportning tovar tarkibida qimmatbaho metallarning yuqori ulushi saqlanib qolishi hamda ayrim qayta ishlash tarmoqlarida barqaror

o‘sishning ta’minlanmaganligi eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish zarurligini asoslaydi. Tadqiqotning ilmiy hissasi tashqi savdo faolligini mamlakat miqyosidagi umumiy eksport-import ko‘rsatkichlari bilan cheklamasdan, uni hududlarning iqtisodiy salohiyati va tashqi savdodagi ishtiroki bilan o‘zaro bog‘liq holda qiyosiy baholashda namoyon bo‘ladi. Olingan natijalar tashqi savdo hajmining o‘sishi hududiy iqtisodiy rivojlanishni avtomatik ravishda ta’minlamasligini, uning samarasi ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, eksport tarkibi, transport-logistika imkoniyatlari va hududning eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududlarning o‘ziga xos iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib differensial eksport siyosatini shakllantirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish, tovar va bozor diversifikatsiyasini rag‘batlantirish hamda tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini asoslash imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud: tahlil asosan rasmiy statistik ma’lumotlar va qiyosiy ko‘rsatkichlarga tayangan, hududlar bo‘yicha uzoq muddatli panel ma’lumotlari asosidagi ekonometrik sababiy bog‘liqlik alohida baholanmagan hamda ayrim hududiy taqqoslashlarda 2024-yilning I chorak ko‘rsatkichlaridan foydalanilgan. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda hududlar kesimidagi ko‘p yillik ma’lumotlar bazasini shakllantirish va korrelyatsion-regression hamda panel ekonometrik usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Yakuniy ilmiy xulosa sifatida, O‘zbekistonda tashqi savdo faolligining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’siri mintaqalarning mavjud iqtisodiy salohiyatini eksport faoliyatiga transformatsiya qilish darajasi bilan belgilanadi; shu bois hududiy eksport siyosatini ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, diversifikatsiya va infratuzilmaviy imkoniyatlarga mos ravishda differensial shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ruzibaeva, N. K., & Shakarboev, I. (2023). Evolving dynamics of Uzbekistan’s foreign trade: A comprehensive analysis. International Journal of Business Diplomacy and Economy, 2(12). https://doi.org/10.51699/ijbde.v2i12.3009

2. Sultanova, G. (2024). Trends in development and diversification of exports of the Republic of Uzbekistan. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(10), 232–249. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp232-249

3. Simpson, Z. P. (2024). Informing macrologistics connectivity in emerging economies through a triangulated research approach: The case of Uzbekistan. Asia Europe Journal, 22, 351–380. https://doi.org/10.1007/s10308-024-00708-x

4. Oloyede, B. M., Osabuohien, E. S., & Ejemeyovwi, J. O. (2021). Trade openness and economic growth in Africa's regional economic communities: Empirical evidence from ECOWAS and SADC. Heliyon, 7(5), e06996. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2021.e06996

5. Kong, Q., Peng, D., Ni, Y., Jiang, X., & Wang, Z. (2021). Trade openness and economic growth quality of China: Empirical analysis using ARDL model. Finance Research Letters, 38, 101488. https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101488

6. Trade openness, market integration and economic growth: Evidence from China. (2025). International Review of Economics & Finance.

7. Sultanova, G., & Naser, H. (2024). The impact of information and communication technologies on export diversification: Evidence from developing countries. The Journal of International Trade & Economic Development. Advance online publication. https://doi.org/10.1080/09638199.2024.2419406

8. Sultanova, G., Djuraeva, R., Ahmedov, A., & Turaeva, S. (2024). Does export diversification matter for ecological footprint in Uzbekistan? Empirical evidence from ARDL approach. E3S Web of Conferences, 574, 04004. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202457404004

9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi https://stat.uz/uz/